

ILK O'SPIRINLIK DAVRIDAGI IJTIMOIY PSIXOLOGIK RIVOJLANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7678622>



Jiyanov Karimboy
Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Uzaqbayeva Surayyo
Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi



ELSEVIER



Received: 22-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

Abstract: Ushbu maqolada o'smirlikdan ilk o'spirinlikka o'tish davridagi psixologik krizislarning avjiga chiqqandagi paytda fiziologik rivojlanishning qay darajada takomillashgani, shu bilan bir qatorda ijtimoiy psixologik rivojlanishga moslashish qanday kechishi yoritilgan. Ilk o'spirinlarning intellektual va emotsiunal rivojlanishi qanday bo'lishi, bu davrdagi yigit-qizlarning jamiyatga bo'lgan xulq-atvorining ijobji va salbiy hossalari va erta turmush masalasiga qaratilgan ma'lumotlar va ularga mos yechimlar berilgan.

Keywords: Intellektual rivojlanish, emotsiunal rivojlanish, akseleratsiya jarayoni, "Men" obrazi, spetsifik qiziqish, ijtimoiylashuv, stereotip.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

O'smirlikdan keyingi davr bu ilk o'spirinlik davri hisoblanadi. Avvallari bu davrni 14 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan davr deb hisoblansa, hozir ko'pchilik psixologlar 15-18 yosh deb belgiladi. Akseleratsiya natijasida hozirgi o'spirin yoshlar avvalgi avlodlarga qaraganda o'rta xisobda 2-3 yil erta rivojlanmoqda. Ya'ni akseleratsiya tezlik degan. Qandayda bir organizm o'sib rivojlanishda tezlikning bo'lishi. Ilk o'spirinlik davrida ular mustaqil hayot ostonasiga qadam qo'ya boshlaydi va o'zlarining hayot yo'llarini belgilab olib, mehnat faoliyatini kuchaytirib ularga erishishga harakat qilishadi. Yigitlar ham qizlar ham o'z kelajagi haqida jiddiy o'ylay boshlaydilar. Ilk o'spirinlik davridagi jismoniy rivojlanish bu narsa quyidagi sabablarga ko'ra muhimdir. Jismoniy rivojlanishning ayrim xususiyatlari ilk o'spirin shaxsining ayrim sifatlari rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Va uning bundan keying hayot faoliyati sohasidagi imkoniyatlarini belgilab beradi.

Birinchidan, bu o'rinda kasb tanlash nazarda tutiladi, bu esa ma'lum darajada yigit va qizlarning individual, jismoniy tuzilishi xususiyatiga ham bog'liqdir; ikkinchidan, jinslarning o'zaro mayli ta'sir ko'rsatadiki bunda jismoniy rivojlanish xususiyatlari ancha muhim rol o'ynaydi. [1.16]

Bu davrdagi yigit va qizlarning o'zlarining jozibadoligini, kuchliligini, sog'lomligini xis qilgan sari o'zlariga bo'lgan ishonch kuchayadi. Dadillik, tetiklik, xushchaqchaqlik singari sifatlar takomillashib tarkib topa boshlayi. Bu davrdagi o'spirinlar mustaqil hayotga kirgan sari, hayot faoliyati kengaygan sari ijtimoiy hayotdagi rollari ham sifat va miqdor jihatidan kengayadi. Misol uchun bu

davrdagi bolalar o'zlarini qayerda qanday tutishi kerakligini, kimga qanaqa muomala qilishida va ijtimoiy hayotdagi voqea va hodisalar xususida o'zlarining mustaqil fikrlarini bayon qila olishi va turli jarayonlarga to'g'ri xulosa chiqara olishi va chiqarga xulosasiga qarab qaror qabul qilishi va shunga muvofiq ish tutishadi.

Ilk o'spirinlik davrida intellektual va emotsiyal rivojlanish

Ilk o'spirinlarning bilish jarayonlari murakkab va egiluvchan bo'lib boradi. Ular imkon qadar o'z vaqtlarini jiddiy ishlarga ajratishga harakat qilishadi. Ularning bilish jarayonlari takomillashib, rivojlana boshlaydi. Ko'proq narsalarga mantiqan fikrlay boshlaydilar, bu esa ularning tafakkurining rivojlanganligidan va ularda nutq, xotira ham rivojlanganligidan dalolat beradi. Mana shuning uchun ham ular o'quv jarayonida, jamiyatda o'zlarining mustaqil fikrini bayon qiladilar. Bir masalaga turli ko'z qarash bilan qaragan holda to'g'ri yechim topa olishadi. Xotirani rivojlantirishda mavhum so'z, mantiq, xotira ma'nosiga tushunib esda olib qolishning roli sezilarli darajada ortadi. Garchi ixtiyoriy xotira ustunlik qilsada, ixtiyorsiz esda olib qolish ham ilk o'spirinlar tajribasidan chiqib ketmaydi. U faqat o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni individual xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Ilk o'spirinlar qiziqishlari, xususan ularning bilishiga oid va kasb tanlashiga oid qiziqishlari bilan ko'proq bog'lanadi. Shu bilan birga faol ravishda bilim egallash, o'qish va jamoat faoliyatida har holda ixtiyoriy xotira yetakchi rol o'ynaydi.

O'spirinlik davrida bilish jarayonlari faol tarzda davom etadi. Ular yon-atrofidagi voqea va hodisalardagi barcha haqiqatlarni bilishga harakat qilishadi. Ularni tayyor bo'lib turgan yechim, javob, ma'lumotlar qiziqtirmaydi. Ular mana shu masala va yechim ustida o'zlari qidirib, mulohaza qilish jarayoni qiziqtiradi. Biror bir masala paydo bo'ladigan bo'lsa, ular o'zlari taxlil qilib, mulohaza qilib yechimini isboti bilan dalillab berishga urinishadi. Shaxsning bilish jarayonlari uning emotsiyalari bilan bog'liq. Har xil emotsiyalarga berilish, turli xil emotsiyal holatlar bu o'smir yoshdagilarda uchraydigan holatlar, lekin jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lib, katta inson bo'lishdagi psixologik qiyinchiliklar, "Men" obrazi va harakat qilish, erishish, intilish darajasidagi zo'riqishlar bu faqat o'smirga emas, ilk o'spirinlik uchun ham xosdir. Inson yoshi katta bo'lgan sari emotsiyal qo'zg'alishni hosil qiluvchi sabablar, omillar ko'payib boradi. Ular uning barchasiga javob qaytaravermaydi. Agar ular yosh bolaga o'xshab hammasiga, har bir qo'zg'atuvchiga javob qaytaraverganda ko'p qo'zg'alish va emotsiyal beqarorlikdan olamdan o'tgan bo'lar edi. Ilk o'spirin yoshdagilarni ham to'liq katta odam deyish noto'g'ri, ularning shaxs xususiyatlarida bolalarga xos xususiyatlarni ham ko'rish mumkin. Bu ularning dunyoqarashida, mustaqil fikrini nomoyon qilishida, berayotgan bahosida, o'z kelajagiga bo'lgan munosabatida ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik o'spirinlar o'qishni ya'ni maktabni tugatayotib ham qanday

kasbga topshirishni bilmay o'z kelajagiga ma'suliyatsizlik bilan yondashadi. Bu davr o'spirinlarda xulq-atvorini, axloqan o'zini-o'zi anglaydigan shuning bilan birga barqaror "Men" obrazining shakllanadigan davri. Ilk o'spirinlarda bu o'zini-o'zi anglashi, o'ziga baho berishi oddiygina o'sib borishi bilan cheklanib qolmasdan, ma'naviy-psixologik tomondan ham sifat jihatdan ham rivojlanishini bildiradi. Sifat jihatdan o'sishi o'spirin o'zining oldiga qo'ygan maqsadlarida, fikrlashida, o'ylagan maqsadiga qa'tiy harakat qilib intilishida nomoyon bo'ladi. Ilk o'spirinlar o'zlarining kuchli va ojiz shu bilan birga ustunlik tomonini to'g'ri va chuqur baholay oladilar. Ular biror masala borasida ko'plab mulohazalar yuritar ekan aynan o'z-o'zini baholash jarayonida ham xulq-atvor masalasiga ko'proq qiziqishadi. Shuning uchun ham ular o'z xulq-atvoriga, xatti-harakatlariga nazar tashlash, o'z kechinmalarini, his-tuyg'ularini, emotsiyalarini bilib olishga ehtiyoj sezadi. Ilk o'spirinlar o'z-o'zlarini anglab borar ekan ularda o'sish va rivojlanish borligini ko'rish mumkin. Ya'ni ular ongli tarzda bu ishlarni amalga oshiradi. O'zining qaysi xatti-harakatlari qonun normalariga mos keladi-yu, qaysilari mos emas ular buni tushungan, anglagan holda o'z xatolarini to'g'irlab o'zlarini nazorat qiladilar.

Ilk o'spirinlarning qiziqishlarini xarakterlaganda avvalo shuni aytish kerakki, yigit va qizlar odatda huddi shu yoshda biror fanga, bilim tarmog'iga, faoliyat sohasiga bo'lgan spetsifik qiziqishlarini belgilab oladilar. Bu yoshdag'i bunday qiziqish shaxsning bilish – professional yo'naliشining tarkib topishiga olib keladi, yigit yoki qizning mакtabni tamomlagandan keyin qanday kasb tanlashini, hayot yo'lini belgilab beradi. Ana shunday maxsus qiziqishning mavjudligi muayyan sohadagi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga doimiy intilishni rag'batlantiradi. [1.185]

Shaxsning ijtimoiylashuvini F. Akromova quyidagi 3 ta bosqichga keltiradi:

Birinchi bosqich – mehnat faoliyatigacha bo'lgan bosqich bo'lib, unga maktabgacha yoshdag'i bolalar bilan maktab yoshdagilar kiradi. Jamiyatga aralashuvi, ijtimoiylashuv jarayoni tashqi muhit orqali bevosita bog'liq bo'lib, ijtimoiy ta'sirlar faol ravishda ongga singdiradi, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqich sanaladi.

Ikkinci bosqich – mehnat faoliyati davri – bu odamning yetuklik yillari bilan bog'liq bo'lib, vavvalgi davrlarda singdirgan ijtimoiy ta'sirlarni bevosita faoliyatda, shaxslararo munosabatlarda bomoyon etadi. Bu davrda kasbga ega bo'lish, aniq hayot yo'lini tanlash, tumush qurish, kelgusi avlodni tarbiyalash kabi shaxsning barcha ijtimoiy fazilatlari shu davrda shakllanadi. [2.78]

Ilk o'spirinlik davridagilar shu ikkita bosqichning o'rtasida joylashgan bo'lib, barcha ijtimoiy jarayonlarga tayyorlanayotgan bo'ladilar. Jamiyatga bevosita aralashadilar va u yerda o'z o'rnini toppish uchun faol harakat qilishni

boshlashadi, ya'ni maktabni tugallagandan keyin mustaqil ta'lif (OTM)ni davom ettirishadi yoki o'zlarining individual mehnat layoqati yetadigan kasblarda ishlay boshlashadi. Bunday ijtimoiylashuv jarayonida jamiyatga aralashish ilk o'spirinlarning salbiy tomonlarga kirib ketish ehtimolini ham yuksaltiradi. Chunki ular 15-16 yoshdan o'tkandan keyin ularning tevarak-atrofida turli tanish-notanish insonlar, do'st va yaqinlari paydo bo'la boshlaydi. O'spirinlar ular bilan kun davomida birgalikda bo'lishi natijasida turli xil salbiy harakat va og'ir xarakterli bo'lib boraveradilar. Masalan: sigaret chekish, ichkilik ichish, har xil bo'limg'ur harakatlar qilish va yarim tungacha ko'cha-ko'ylda tentirab yurish singari salbiy xulq-atvor shakllanadi. Qizlarda ham shunga o'xshash xarakterlar paydo bo'ladi. Har xil dugonalari, tanishlari va sevimli modellariga qiyoslanib, shularga o'xshab harakat qila boshlaydi. Yigitlar bilan muloqotga kirishib, ular bilan munosabat o'rnatishga harakat qilishadi va bunday harakat natijasi juda tez vaqtida namoyon bo'lib qoladi. Chunki, bunday paytda yigitlarning ham qizlarga bo'lgan moyilligi oshib borayotgan payti hisoblanadi. Buning oqibatida har xil juda salbiy, yoqimsiz vaziyatlar kelib chiqishi mumkin. Bu ilk o'spirinlarda hozirgi davrda kuzatilayotgan salbiy xulq-atvor natijasidir.

O'spirinlik yoshidagi yigit va qizlarda oila qurishiga bo'lgan tushuncha katta o'spirinlik davrida juda katta motiv o'rnini egallaydi. Bunday paytda yigit va qizlar bo'lajak turmush o'rtog'ining qanday inson bo'lishi kerakligini o'ylashadi va o'sha insonni uchatishga intilishadi. Bunday hollarda ota-onada va yaqin kishilari to'g'ri qaror qabul qilishiga va to'g'ri insonni tanlashga yordamlashishi kerak. [3.6]

Ota-onada bu yoshdagi farzandiga yordam berishi kerak deganim bejizga emas, hozirda, umuman o'tmish asrlardan buyon o'spirin yoshdagi yigit qizlarni erta turmush qurishiga sabab bo'luvchi bir nechta omillarning bir bu ota-onasi va yaqin qarindoshlaridir. Ularning turli xil steriotiplari natijasida ilk o'spirinlarning yoshlik davriga putur yetadi. Aytaylik, 17-18 yoshli qizga sovchi keldi, ota-onada va yaqinlari u qizga har turli o'zlarining eskilik stereotipiga aylanib ketgan "Qiz bolani joyi chiqqanida berish kerak", "O'tira, o'tira qachongacha o'tirasani bu borishda seni hech kim olmaydi", "Qancha erta turmush qursang oilaga moslashishing shuncha yaxshi bo'ladi, farzandlaringni erta uylantirib, turmushga berasan, erta nabirali bo'lsan, hayotda har narsaga erishasan" va eng muhim va juda ham emotsiyal holatga solib qo'yadigan mana bunday jumla "Bizning ham sening to'yingni ko'rgimiz, nabiralarimizni katta qilgimiz keladi" kabi. Ammo ularning xayoliga "Qizim yoki o'g'lim o'zi nimani xohlayapdi?", - degan fikr kelishi yoki kelmasligi nogumon. Mayli, o'spirin yigit yoki qiz turmush qurdi ham deylik, oqibati qanday bo'ladi? Yigit oilasini boqish uchun ishlashga majbur bo'ladi, farzandi dunyoga kelmasdan oldin yoki kelgandan keyin chet elga ishlashga ketadi va bu tomonda qolgan bolasi va ayoliga beradigan mehrni tarbiyani, e'tiborni farzandining birinchi

harakatini, gapisishini, yurishini va ulg'ayishini ko'ra olmaydi, oilaviy muammolarga qanday yechim topishni bilmaydi. Qiz bola ham huddi shunday bo'ladi. Mana erta tumushning oqibatlari.

Ijtimoiylashuv – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallahash va hayot – faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir.

Srteotip – odamlar guruhining shaxsiy sifatkar haqidagi fikri. Streotipler haddan tashqari umumlashgan, noaniq va yangi informatsiyaga resident bo'lishi mumkin; organizmga ornashib qolgan ba'zi noto'g'ri tushunchalar.

Xulosa qilib shuni aytadigan bo'lsak, bu davr murakkab rivojlanish davri hisoblanadi. O'spirinlar bu davrda katta bo'lishni orzu qilib, harakat qilishmaydi, balki mana shu katta insonlar dunyosiga qadam qo'yib, ular orasida yashay boshlaydilar. Bunday hayotda yashash ijtimoiy dunyoga kirishdir. Bu davr o'spirinlarda ularning intellekti va emotsiyasi yaxshi rivojiana boradi. Asosiy ajralib turadigan xususiyati o'zlarida mustaqil fikrning bo'lishi va bir masalaga turli xil ko'z qarash bilan yondashib to'g'ri yechimni topa olishidir. Emotsiyaga keladigan bo'lsak, bu davr ularda hissiyotlarning avjiga yetish davridir. Do'stlik, sevgi-muhabbat hissiyotlarining kuchayishi. Sevgi-muhabbat borasidagi hissiyotga berilish noto'g'ri yo'lga olib kelish ehtimoli kuchli. Chunki bu davr mакtab Yoshi va kollej davriga to'g'ri keladi. Ular mana shu hissiyotga berilib oila qurish holati yuz berishi mumkin. Lekin ular bu davrda oilaga tayyor emas hisoblanadi. Hali balog'atga to'liq yetmagan davridir. Agar ma'um sabablar bilan oila qurishsa ham ajralish holatlari kuzatilish ehtimoli yuqori. Chunki ular, hali psixologik tomonidan ham unga tayyor emas. Bir-birini to'g'ri tushunmay qolish uning orqasida urush-janjallardan so'ng ajralib ketish holati kuzatiladi. Bularning oldini olish uchun ularga maslahat berib tushuntirish ishlari olib borish kerak. Ularni eshitish kerak nimani xohlaydi, nimaga qiziqdadi va maqsadlari qanday, nimalarga erishish uchun harakat qilayabdi. Ular o'zlarining kelajagini jiddiy o'ylab ko'p vaqtini ularga erishish uchun sarflaydi. O'zlarining qiziqqan yo'nalishini bilib, harakat qilib keljakda qanday kasb egallahini qa'tiy belgilab oladi. O'spirinlar bilan ko'plab suhbatlashib, xato qilayotgan bo'lsa to'g'ri yo'lni tanlashga yordam berish zarur. O'spirinlarni o'ylantirayotgan, qiynayotgan masala bo'lsa, ular bilan do'st bo'lib, maslahatlashib asosiysi o'spirinlarni tushunish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.A. Do'stmuhammedova, Z.T. Nishanova, S.X. Halilova, Sh.T. Karimova, Sh.T. Alimboyeva "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya", Toshkent – 2013.

2. N. Islomova, D. Abdullayeva "Ijtimoiy psixologiya" o'quv qo'llanma, Toshkent - 2015.

3. "O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar" jurnali 20.02.2023 yilgi 16-soni, Jivanov Karimboy Omon o'g'li "O'spirinlik davridagi yigit va qizlarning hayot faoliyatida fiziologik rivojlanish, psixologik o'zgarish va ijtimoiy jarayonlarning ahamiyati" – maqola.